

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI  
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

HUSAINOV DILSHOD

MUSOBAQA DAVRIDA FUTBOLCHILARNI PSIXOLOGIK  
TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ixtisoslik: 5810200 “Sport” (futbol)

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga

qo‘yildi “Futbol nazariya va  
uslubiyati” kafedrası mudiri

R.I. Nurimov\_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2012y.

Ilmiy rahbar:

\_\_\_\_\_

Ilmiy maslahatchi:

\_\_\_\_\_

TOSHKENT 2012 y.

## **Mundarija**

### **KIRISH**

#### **I BOB Adabiy manbalardagi ma'lumotlar bo'yicha masalaning holati**

- 1.1. Futbolchilarning irodaviy tayyorgalining o'ziga xos xislatlari
- 1.1.1 Futbolchilarni tayyorlashda sezgining o'rni
- 1.2 Murabbiyining jamoadagi o'rni va uning faoliyati
- 1.2.1 Jamoa o'yinchilarini o'yindan oldingi xolati
- 1.3 Futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonidagi psixologik tayyorgarligi

#### **II. BOB. ISHNING MAQSADI, VAZIFASI VA TADQIQOT YO'LLARI**

- 2.1. Tadqiqot uslublari
- 2.1.1 Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va taxlil qilish
- 2.1.2 Matematik statistika usuli
- 2.2 Pedagogik tajriba

#### **III BOB MUSOBAQA SHAROITDAGI OLINGAN NATIJALAR TAXLILI VA ULARNI OSHIRISH YO'LLARI**

- 3.1 Jamoadan dastlabki olingan natijalarni taxlili
- 3.2 Dastlabki jamoadan olingan natijalar taxlili
- 3.2.1 Sportchining texnik jihatdan tayyorlashni psixologik asoslari
- 3.2.2 Sportchini taktik jihatdan tayyorlashning psixologik asoslari
- 3.2.3 Sportchilarni psixologik jihatdan tayyorlashning asoslari
- 3.2.4 Sportchilarni irodaviy tayyorlashni psixologik asoslari
- 3.2.5 Sportchilarning startoldi holatiga psixologik tavsif
- 3.3 Jamoalardan tadqiqotdan sungi olingan natijalar taxlili

### **Xulosalar**

### **Adabiyotlar ro'yxati**

## **Kirish**

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlanishi mustaqil O'zbekistonning eng muhim davlat dasturi - sog'lom avlodni tarbiyalash dasturining tarkibiy qismiga aylandi. YOsh avlodni har tomonlama tarbiyalashning ilmiy uslublari asosida, ularni har tomonlama rivojlantirish va ta'lim berishda psixologiya fani etakchi o'rinni egallaydi.

Mutaxassislarni sport psixologiyasi va bilim nazariyasi bilan mukammal rivojlantirishdir. Jismoniy tarbiya va sport jarayonida, shaxs faoliyati sohasida ilmiy tadqiqot ishlarining olib borishga, bilim malakalarini amaliy ishda qo'llashiga, kasbi aloqador bo'lgan muammalarni hal qilishga o'rgatish. Trener va jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy mahoratini oshirishdan iboratdir.

Sport psixologiyasi jismoniy tarbiya va sport speqifik sharoitida faoliyatli shaxsni ya'ni sportchini psixikasining namoyon bo'lish qonuniyatlari va uning rivojlanishini o'rganadi.

Sport psixologiyasi dastlabki vaqtda alohida rivoj topmoqda. Uning rivojlanishi zamonaviy sportni tez rivojlanishi, sport natijalarini yuqori darajada o'sishi, insoniyat hayotiga intensiv va keng kirishi bilan ifodalanadi. Hozirgi vaqtda yaqqol ko'rinib turibdiki, kelajakda sport natijalarini oshirish, aynan sport texnikasini yuqori darajada egallash, sportchini psixikasini o'rganmasdan, uning psixik funkqiylarini chuqur tekshirmasdan, sportchi shaxsning psixologik sifatlarini o'rganmasdan, na trener, na sportchi yuqori natijalarga etisha olmaydilar. Sport sohasida aynan pedagogik talab orqali yuqori natijalarga etishish mumkin: "Odamning har tomonlama tarbiyalash uchun uni har tomonlama bilish kerak".

Odamning harakat qilishga va jismoniy sifatlarini o'stirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga doimo intilishi, jismoniy mashqlarning asta-sekin zamonaviy sport turlariga o'zgarib borishiga olib keladi va u o'ziga xos qator xususiyatlari bilan farqlanadigan bo'lib qoladi.

Sportchining iroda tayyorgarligi o‘zining pedagogik mohiyati jihatidan sport faoliyati sharoitga moslab amalga oshiriladigan ahlokiy tarbiya, jumladan, irodani tarbiyalash jarayonidir.

Sportchining iroda tayyorgarlik jarayonida hal etiladigan vazifalar, avvalo faoliyatni yuzaga chiqaradigan sabablarni to‘g‘ri tushinishdan iboratdir. Bundan sport bilan muntazam shug‘ullanish, bu yo‘lda mumkin qadar ko‘prok faollik natijalarga erishish istagini shakllantirish va rivojlantirish zarur.

Psixik tayyorgarlik deganda Psixik-pedagogik tadbirlar va sportchilar faoliyati hamda hayotiga muvofiq sharoitlar yig‘indisi tushuniladi.

Ular kurashchilarda trenirovka va musobaqada qatnashish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishni ta’minlaydigan Psixik funkqiyalar, jarayonlar, holatlar va shaxs xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan.

## **I Bob. Adabiy manbalardagi ma'lumotlar bo'yicha masalaning holati**

### **1.1. Futbolchilarning irodaviy tayyorgalining o'ziga xos xislatlari.**

**Iroda** – kishining ongli ravishda qo'yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan aktiv ixtiyoriy harakatlarida namoyon bo'ladigan psixik faoliyatidir. Harakatlar har qanday kishini faoliyatini tarkibiy qismidir. Irodaviy faoliyat esa xamisha muayyan maqsadga qaratilgan va ichki tomonidan o'zaro bog'langan harakatlar sistemasi tarzida amalga oshiriladi. Ixtiyoriy harakatlar irodaviy harakatlarning tarkib topish asosi hisoblanadi. Ixtiyoriy harakatlar quyidagi belgilar bilan belgilanadi: birinchidan bu harakatlar doimo anglab olingan va maqsadga erishishga qaratilgan harakatlardir, ikkinchidan, bu harakatlar kishining mashq qilish va o'qib-o'rganish protsessida hosil qilingan ko'nikmalardir. Jismoniy tarbiya darsida 1-sinf o'quvchilariga nazar soling. O'qituvchi ularga o'ng qo'lni ko'tarish va ayni bir vaqtda chap oyoq tizzasini egish kerak – deb mashqni ko'rsatib beradi. Maktab bolasi shu harakatlarni bajarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

O'qituvchi: “Boshlaymiz, bir” – deb topshiriq beradi. Ammo o'quvchi bu mashqni uddalay olmaydi. O'quvchi faqat bir necha marta mashq qilish natijasidagina bu harakatni to'g'ri bajarishga o'rganadi.

Ixtiyoriy harakatlar so'z bilan bog'liqdir. So'zda xamma vaqt harakatlarning maqsadi ifodalangan bo'ladi, so'z shunday bir signaldirki, shunga qarab harakat sodir bo'la boshlaydi. I.P.Pavlov so'zni “harakatni ishga soladigan signal” – deb atagan edi, ya'ni iroda kishining o'z faoliyati va xulqini ongli ravishda tartibga solib berishi ifodalanadi.

Oldindan o'ylanmaan, ixtiyorsiz harakatlar ongning nazoratisiz sodir bo'ladi. SHartsiz reflekslar: yo'tal, yutish, qo'lni issiq narsadan tortib olish ixtiyorsiz harakatlarga misol bo'la oladi. Ixtiyorsiz harakatlar maqsadga muvofiq harakatlar bo'lishi mumkin.

Masalan: uxlab yotgan kishining yuziga pashsha qo'nganda, qo'l bilan maqsadga muvofiq, reflektor harakat qiladi, pashsha uchib ketadi.

SHu tariqa anglab olingan harakatlar va anglab olinmagan harakatlar bo'lishi mumkin, ammo insonning harakatga kirishishi doimo anglab olingan bo'ladi. Ish xarakatlar ongning kuchli yoki bo'shashgan nazorati ostida bo'ladi, ya'ni ish harakatlar turlicha anglab olingan bo'lishi mumkin. Kishi qandaydir ishni qilgandan keyin, darrov bundan afsuslanadigan xollardar ana shunday bo'ladi. Kishi ko'pincha kuchli xislar ta'siri ostida – aniq anglab olingan maqsad bo'lmaganligi tufayli mosna shunday etarli darajada anglanmagan ish xarakterlarni bajaradi. Kishi tashqi va ichki qarshiliklarni engishi irodaviy zo'r berish deb ataladi.

Murakkabroq irodaviy harakatlar jiddiy to'siqlarni engishga qaratilgan ko'proq zo'r berishni talab etadi.

Ish harakat ma'lum qiyinchiliklarni engish bilan bog'liq bo'lgan vaqtdagini uni irodaviy harakat deb atash mumkin.

Iroda kishining ongli ravishda muayyan maqsadlariga qaratilgan harakat va ishlarida, anglab olingan maqsadlar motivlar ahloqiy prinsiplar va ishonch e'tiqodlar asosida amalga oshiriladigan harakatlarni tartibga solishda, maqsadga erishish yo'lida uchraydigan to'sqinlik va qiyinchiliklarni engishda namoyon bo'ladi. Kishining irodaviy harakatlari faqat alohida qo'yilgan maqsad bilangina emas, balki shaxsning umumiy maqsadini ko'zlashi bilan ham belgilanadi. Mehnat faoliyati irodaviy harakatdir – bu faoliyatda iroda yaqqol namoyon bo'ladi. Mehnat xamisha muayyan maqsadga qaratilgan maqsad bilan oldindan ishlab chiqilgan reja bilan bog'liqdir. Kishi jismoniy yoki aqliy mehnat jarayonida uzoq vaqt jon jaxti bilan ishlaydi va ishlashga qodir emasdek ko'rinadi – “men albatta ishni bajarishim kerak” – deb yana g'ayrati kuchayadi va kishi zo'r berib mehnat qilishni davom ettiradi. Iroda mehnat faoliyatida, mehnat harakatlarini bajarish jarayonida kishi qiyinchiliklarga duch kelib, bularni engish paytida namoyon bo'ladi. Irodaviy harakatlar kishining muayyan maqsadga qaratilgan har qanday faoliyatiga tarkibiy qism bo'lib kiradi. Iroda kishi psixik faoliyatining bir tomoni sifatida namoyon bo'ladi. Irodaviy faoliyat kishining xislari bilan chambarchas bog'langandir.

Irodaviy harakatning fiziologik asosi, bosh miya po'stida hosil bo'ladigan shartli bog'lanishlarning murakkab sistemasidir.

Irodaviy harakatlarning nerv-fiziologik asosida shartli reflekslar yotadi. I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra irodaviy harakatlarning xamma mexanizmi yuksak nerv faoliyatining butun qonunlariga bo'ysunuvchi shartli bog'lanishlardan, ya'ni assostativ proqesslaridan iboratdir.

“Mening tasavvurimcha, ong, - deydi I.P.Pavlov, - ayni shu chog'da xuddi shu sharoitning o'zida ma'lum darajada optimal qo'zg'olishga ega bo'lgan katta miya yarim sharlarining ayrim joylaridagi nerv faoliyatidan iborat. Ana shu onda katta miyat yarim sharlarining qolgan xamma qismlari birmuncha ko'proq qo'zg'olish holatida bo'ladi”.

Iroda kuchi, ahloqiyliqi, mustaqilliqi jixatdan kishining irodasi ayrim xollarda turlicha namoyon bo'ladi.

Iroda ma'lum kuchga ega bo'ladi, ya'ni kuchli va kuchsiz suvratda namoyon bo'ladi. Ba'zida biz intilishlarni, irodani kuchini ko'rishimiz mumkin. Iroda kuchi tezlik bilan qarorga kela olishda va qarorning mustaxkamligida ko'rinadi.

Iroda kuchi qabul qilingan qarorni o'z vaqtida bajarishda yoki uni ng bajarilish muddatini doim galdan-galga qoldira berish kuchsiz irodaning alomatidir.

Agar kishi tushkunlik va qiyinchiliklarni qarshi xarakatlarni irodaviy zo'r berish va irodaviy xarakatlarni yordami bilan engib, katta muvoffaqiyatlarga erishar ekan, bunday holda biz bu ishning kuchli irodaga ega ekanligi va kuchli iroda ko'rsatgani haqida gapira olamiz.

Bunda yuksak irodaviy sifatlar faqat ayrim shaxslarningina emas, balki butun bir kollektivning ham xususiyatidir.

Kishi irodasining kuchsizligi uni juda arziyas qarshiliklarinin ham enga olmasligida ko'rinadi.

Irodani kuchsizligi, odatda, irodasizlik deb ataladi. Iroda kuchiayniqsa o'zini tuta bilishda, jasurlikda, matonatda va chidamlilikda namoyo bo'ladi.

O'zini tuta bilish kishini o'z-o'zini qo'lga ola bilishdir. Bunda kishini oldiga qo'ygan maqsadlarining amalga oshishiga qarshilik ko'rsatuvchi ichki holatni engishda ko'rinadigan kuchli irodadir.

O'zini tuta bilish, og'riqni, qo'rqinchni, g'azabni va boshqalarni engishda ko'rinadi.

O'zini tuta bilish ayni paytda keraksiz bo'lgan reflekslarga, odatlarga, mayllarga yo'l qo'ymaslikdir.

O'zini tuta bilish va ko'rmaslilik odamning qo'rqinch xissini kechirmasligida emas, balki ongni yo'qotib yuborishdadir.

Irodasi kuchli kishilar deganda biz o'zini maxskam tuta biladigan bosiq kishilarni tushunamiz.

O'ziga kuchi eta olmaslikning eng keskin ko'rinishi beboshlik pastkashlikdir. Bunday odam o'zida beixtiyor tug'ildigan salbiy tuyg'ularga, intiknklarga berilib o'z nafsini tiya olmaydi.

Bu xayvonlik xolatiga tushib qolish demakdir.

Dadillik kishining hayoti va omonligi uchun xavfli bo'lgan qarshiliklarni engishda ko'rinadigan iroda kuchidir.

Biron maqsadni amalga oshirishda xamisha dadillik va o'zini tuta bilishning ajoyib namunalarini ko'rsatmoqdalar.

Dadillikning yo'qligi iodaning alomatidir. Buni qo'rqqoqlik nomardlik deb ataladi.

Ma'lum maqsadni amalga oshirishda, ko'pincha uzoq vaqt davomida irodamizga aks ta'sir qiluvchi katta qarshiliklarni va qiyinchiliklarni engishga to'g'ri keladi.

Ba'zi bir qarshilik va qiyinchiliklar go'yo engib bo'lmaydigandek bo'lib ko'inadi. Bunday hollarda kishi ba'zan qabul qilingan qarordan voz kechadi. Biroq kishi bunday hollarda boshqacha xarakat qilish ham mumkin kishi ar qanday qiyinchiliklarda bardosh bera oladi va ko'zlagan maqsadiga erishishi mumkin.

Xar qanday faoliyatning, jumladan o'qishning ham muvoffaqiyati qat'iyatga bog'liqdir. Bilm egallash uchun sport malakasini ortirish uchun ham qatiyat kerak.

Maqsadni amalga oshirishda engishga to'g'ri keladigan qarshilik va qinchiliklarni kishidan kuch hamda vaqt sarf qilishni talab qilibgina qolmay balki unga jismoniy va Psixik azob beradi.

Kishi o'z faoliyati davomida bir qancha qarshiliklarga duch keladi. Ularning vazifasi buarning hammasini engishdir.

Odamdagi qatiyat va chidamlilik aniq maqsad va o'zining anchagina barqarorligi bilan ajralib turadigan kuchli motivlarning mavjudligiga bog'liqdir.

O'zini tuta bilishlik, dalillik, qatiyatlilik, chidam va toqat paytlarida namoyon bo'ladigan kuchli irodaga madlik deb ataladi.

Irodaning ahloqiyligi kishi o'z oldiga anday maqsadlar qo'yganligini, bu maqsadlarga qanday vositalar yordami bilan moyillar tufayli tugilishini, ma'lum bir qarorga kelishda kishi qanday prinqiplarga tayanishini nazarda tutamiz.

Axloqiy sifatlar iroda kuchining ijobiy sifati bo'lib hisoblanadi. Odamlarning axloqiy qiyofalari namoyon bo'ladigan irodaviy xarakatlarga qarab xukm chiqaramiz.

Quruq gaplariga qarab emas, shuning uchun kuchli irodaninig mardlik, o'zini tuta bilish, qatiyatlilik, chidamlilik va botirlik kabi xususiyatlari bizda inson axloqiy sifatlarining namoyon bo'lishi deb hisoblaniladi.

Axloqiylikning darajasi irodaviy proqessning hamma fazalarida ya'ni motivlar kurashida ham qilingan ishlarga baho berishda ko'rinadi.

Motivlar kurashi va qaroriga kelishda axloqiylik ma'lum bir motivni asoslashda ko'rinadi.

Motivlar ahloqiy yoki axloqqa hilof bo'lishi mumkin.

Irodaviy xarakatlarning mustaqilliligi, avvalo kishining tashabbuskorligi ko'rinadi.

Tashabbuskorlik biron bir ishni boshlab yuborishdir. Tashabbuskorlik odatda tevarak-atrofdagi sharoit hamda ijtioiy hayot talbani epchillik va

mohirlik bilan hisobga olish va ko‘pincha yangilikni oldindan qura bilish qobiliyati bilan bir vaqtda ko‘rinadi. Javobgarlikni xis qilishda ya’ni o‘z xatolarini tuzatishga tayyor turish va xaqiqatdan ham uni tuzatish demakdir.

Mustaqillikning irodanng negativizm va qaysarlik kabi salbiy ko‘rinishlaridan tuzatish demakdir.

Negativizm – atrofdagi kishilarning xar qanday ta’siriga nisbatan o‘ylamay-netmay, dalilsiz ravishda qarshilik ko‘rsatishdan iboratdir. Bunday odamlar aytilgan narsani teskarisini qiladi.

Qaysarlik – boshqa kishilarning aytgan gaplariga ya’ni buyruq va takliflarga atayin qarshilik qilishdir.

Qaysarlik qilayotgan odam o‘zi deganini qila biladi va nima sababdan shunday qilayotganini ob’ektiv ravishda asolsab bermaydi: “Bu mening ishim”, “O‘zim bilaman” – deb sub’ektiv dalil keltiradi.

Qaysarlik ko‘rsatishda etarli darajada tafakkur ishtirok etmaydi.

Mustaqillikning ayni vaqtning o‘zida iroda kuchining belgisi hamdir. Iroda kuchga faqat katta to‘siqlarni eng a olish qobiliyati bilangina belgilanib qolmay balki tashabbuskorlik, o‘z mustaqilligini anglash, o‘z qatiyati va qabul qlingan qaror javobgarligida blinadi.

Mustaqilsizlik – bunda kishi ma’lum bir xatti xarakatlarni boshqa faqat boshqa odamlarning bvosita ta’siri ostida qiladi. O‘zining qarorlari hamda xarakatlarida faqat boshqa odamlar irodasini amalga oshiruvchi bo‘lib qoladi. Mustaqilsizlik ko‘pincha, kishining prinqipsizligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Mustaqilsizlikning xarakterli belgisi o‘zining qabulqilgan qarori va xarakatlariga nisbatan javobgarlik xissini yo‘qligidir. Buning yaqqol ifodasi laqmalik bilan xarakat qilishdir.

Odamning boshqa kishilar bilan xarakat qilish xususiyatiga laqmalik deb ataladi.

Uzoq yil davom etgan xavoirlk xissi va xursandchilik tufayli xam kishi laqmalk qilib qo‘yishi mumkin. Bunday harakatlar irodaning salbiy xususiyatlaridir. Ongli intizom mustaqil irodaning ifodasidir.

### 1.1.1. Futbolchilarni tayyorlashda sezgining o'рни.

Inson ko'rish sezgilari yordamida tashqi olam tomonidan ta'sir etadigan informaqiyalarning 85 % ga yaqinini bilib bilinadi.

Bunday qaraganda ko'rish sezgisi inson bilish faoliyatining eng maxsuldor o'ismi bo'lib xisoblanadi. Ko'rish sezgisi orqali odam yorug'lik nuri va xar turli ranglarni aks ettiradi. Barcha ranglar asosan xromatik va axromatik ranglarga bo'linadi. YOrug'lik nurlari uchburchak shisha prizma orqali o'tib singanda xosil bo'ladigan ranglar xromatik ranglar deb atlatadi.

Bu ranglarning turlari nixoyatda xilma –xil bo'lib juda ko'pdir.

Ko'rish sezgilarining organi ko'zdir. Ko'zning tur pardasi qismida qismida yorig'likni sezish uchun asosiy aamiyatga ega.

Ko'ruv nervning tarmoqlari tur pardada joylashgandir. Bu tarmoqlarning chekka uchlarida maxsus nerv xujayralari shaklan tayoqcha va kolbachaga o'xshagani uchun tayoqchalar va kolbachalar deb ataladigan xujayralar bo'ladi. Kolbachalar yordamida biz faqat ravshan yoriqlikda ko'ramiz. Tayoqchasimon nervlar tunda va umuman xira yorig'likni xam seza oladi. Axromatik ranglar xam tayoqchasmimon nervlar bilan ko'riladi. Tur pardaning eng sezgir joyi sariq dog'ning asosan kolbachalar bilan to'lgan markaziy chuqurchasidir.

#### Eshitish sezgisi

Eshitish sezgisining-organi quloq bo'lib uch qisimdan iboratdir.

1. Tashqi quloq -quloq suprasi , tovush o'tkazish kanali.
2. O'rta quloq - nog'ara parda unga tutashgan uchta suyakcha.

Sandonsumon ,uzangisumon, bolg'achasimon.

3. **Ichki quloq** -chig'anoq va uch yarim doira kanalchalardan tashkil topgan. Eshitish sezgisi orqali tovushlarni sezamiz. Bizga ta'sir qiladigan oddiy va murakab turlarga bo'linadi. Tashqaridan kelgan tovush quloq suprasiga urilib , tovush o'tkazish kanali orqali o'rta quloqqa o'tadi. O'rta quloqdan ichki quloqqa o'tadi .Ichki quloqning yuqori qismi uchta yarim kanaldan iborat, o'rta qismi kameradan va pastki qism chig'anoqdan iborat. Bu uchchala qismi endolimfa

suyuqlik bilan to'la chig'anoqning ichida kortiy organi mavjuddir. Kortiy o'zgalari orqali eshitish nervga bog'lanadi.

Eshitish organlari bosh miya po'stining chakka bo'lagidir.

**Teri sezgilari** – Teri sezgisining tarkibiga taktil sezgilari bilan birga , xarorat sezgisi xam kiradi.

Teri sezgilari organi – teridagi va tashqi shilliq pardagi tuyish tanachalari degan maxsus tanachalardir. O'sha tanachalarning ichida, qisman esa tashqarisida tuyish nervining chekka tarmoqlari bor.Ular terida va gavdamizdagi shilliq pardalarida bir tekkisda taqsimlangan emas. Barmoq uchlarida , til uchida, labda zich joylashgandir.

Buni estizimetr nomli maxsus asbob yordami bilan anmiqlanadi. Xarorat sezgilari issiq sovuqni sezishdan iboratdir.

**Muskul xarakat sezgilari-** Muskul sezgilari orqali odam gavdasining barcha qisimlaridagi turli xarakatlarning va gavdasining fazodagi xolatining aks ettiradi.Xarakat sezgilarining rezeptorlari muskullarda , paylarda bo'g'inlarning yuzlarida joylashgandir.Sport faoliyatida va odamning xayotida xarakat sezgilarining axamiyati nixoyatda kattadir.Agar xarakat sezgilari bo'lmaganda edi, biz gavdamizdagi barcha qsimlarning ayni chog'dagi xolati va xarakatlarini mutloqo bila olmagan xamda boshqara olmagan bo'lar edi. Muskullar , paylar va bo'g'inlardagi maxsus nerv tolalari salgina xarakatga nisbatan g'oyat sezgir bo'lib , yuzaga kelgan xar bir xarakat xaqida bosh miya katta yarim sharlaridagi xarakat markazlariga xabar qilib turadilar

Xarakat sezgilari orqali gavdaning fazodagi xar qanday xolat i xam aks ettiriladi.SHuning uchun jismoniy tarbiya yuzasidan o'tkaziladigan xar xil mashqlarni bajarishda muskul xaprakat sezgilarining roli kattadir.

### **Organik sezgilar-**

Organik sezgilar orqali odam organizmning ichki xolati xamda undagi barcha organlarning ayni chog'dagi xollarda aks etiriladi.Organik sezgilarining sezuvchi nerv tolalari ichki organlarning yuzalarida joylashgandir.

### **Sezgilarining asosiy qonuniyatlari-**

SHaxsning sezgi soxasidagi individual xususiyatlari birinchi navbatda sezgi chegaralariga bog'liqdir. Sezgining paydo bo'lishi uchun ob'ektdan keluvchi qo'zg'atuvchi ma'lum kuchga ega bo'lishi ya'ni chegaradan yuqori bo'lishi kerak. Arang seziladigan sezgiga sabab bo'luvchi qo'zg'alishning eng past meyori mutloq chegara deyiladi. Eng past qo'zg'atuvchining ta'sirini seza olish qobiliyati mutloq chegaralik deyiladi. Sezgining mutloq chegarasi past bo'lsa, mutloq chegaralik shunchalik yuqori bo'ladi. Sezgilarda zo'rg'a seziladigan farqi sabab bo'luvchi qo'zg'atuvchi kuchidagi o'ta bilinar bilinmas o'zgarish sezgirlikning farqlash chegarasi deyiladi.

Sezgining maksimal yoki yuqori chegarasi deganda xali qabul qilayotgan maksimal qo'zg'atuvchi bo'lib biroq uning chegarasidan tashqarida sezgi boshqa sifatga – og'riqqa o'tishi unda sezgi bevosita emoqiya bilan bog'lanib ketishi tushuniladi. Sezgirlikni meyyoridagi chegaralar professional tajriba va mashq qilganlik darajasi charchash va salomatlikning xolatiga bog'liq bo'ladi.

Sezgilari – inson bir xil qo'zg'atuvchilarning aks ettirish shakllaridan iboratdir. Jumladan, elektor magnitlari nurlanishini ko'rish sezgisining qo'zg'atuvchisi xisoblanadi. Bu nurlanish to'liqini uzunligi 380 dan 770 millimikron doirasida bo'ladi va ko'rish analizatorlarida nerv jarayoniga aylanadi. Eshitish sezgilari rezeptorlariga tebranish tezligi 16 –20 mingga qadar bo'lgan tovush to'liqlari ta'sirining aks etish natijasidir.

Sezgilarning sifati jadalligi uzoq davom etishi ko'p joylarida yuz berish sezgining xususiyatlaridir.

Sifat ushbu sezgining asosiy xususiyati bo'lib uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi doirasida o'zgartirib turadi. Masalan, eshitish sezgi past –balandligi, mayinligi, zarurligi bilan ko'rish sezgisi boyligi, ranglarning tusi bilan farq qiladi. Sezgilarning jadalligi, ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va rezeptorning funkqional xolati bilan bog'liqdir. Sezgining davomiyligi uning vaqtinchalik xususiyati xisoblanadi.

**Sezgilarning o'zaro munosabati** – analizator sezuvchanligining boshqa sezgi a'zolarining qo'zg'alishi ta'siri ostida o'zgarishi sezgilarning o'zaro

munosabati deb ataladi. Umaman bizning analizator sistemalarimiz ko‘proq yoki ozroq darajada bir –biriga ta’sir ko‘rsatishga qodirdir. Bunda sezgilarning o‘zaro munosabati sezuvchanlikning ortishi va pasayishida namoyon bo‘ladi. Analizatorlarning o‘zaro munosabatlarida kuchsizlari analizatorlarning sezuvchanligini oshiradi. Kuchlilari esa pasaytiradi.

**Sensibilizatsiya** – analizatorlar o‘zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezuvchanlikning ortishi sensibilizatsiya demakdir. Analizatorlarning markaziy bo‘lmalari joylashgan bosh miya qobig‘ida qo‘zg‘alishning irradiatsiyalashuvi (tarqalish) va koncentratsiyalashuvi (to‘planish) jarayonlari sezgilar o‘zaro munosabatining fiziologik mexanizmi bo‘lib xisoblanadi. O‘zaro induksiya qonuniga binoan bu markaziy bo‘lmalarda boshqa analizatorlarning tormozlanishiga va ular sezuvchanligining susayib ketishiga olib keladi. Analizatorlar sezgirligining o‘zgarishi shartli reflektor, asosida ya’ni ikkinchi signallar sistemasiga qarovchi qo‘zg‘atuvchilarning ta’siri bilan yuzaga keladi. Sezgi organlarining sezgirligini o‘zgartirish qonunlarini bilganimizga asoslanib maxsus, tarzda tanlab olingan qo‘shimcha qo‘zg‘atuvchilarni qo‘llash yordami bilan bir rezeptorni sensibilizatsiyalash, ya’ni sezgirligini oshirish mumkin.

**Senesteziya** – sezgilarning o‘zaro munosabati senesteziya deb ataladigan ya’ni bir turdagi xodisada namoyon bo‘ladi. +o‘zg‘atuvchining biror analizatorga ta’siri bilan boshqa analizatorlarga xos sezgining paydo bo‘lishini senesteziya deyiladi. Senesteziya xodisasini xar xil turdagi sezgilarda kuzatish mumkin. Ko‘rish, eshish senesteziyasi xammadan ko‘proq uchrab turadi, unda tovush qo‘zg‘atuvchilarning ta’siri bilan odamda ko‘rish fazolari yuzaga keladi. Bunday senesteziyalar xar xil odamda xar xil bo‘ladi. Lekin bunday senesteziyalar xar bir aloxida shaxs uchun anchagina doimiy bo‘ladi. Senesteziya xodisasiga xamma odamlar xam ega bo‘lavermaydi, lekin senesteziya xodisasi, xar xolda ancha keng tarqalgandir. «O‘tkir ta’m», «Savlatli rang», «shirin tovush» va boshqa shu kabi iboralarning ishlatilish imkoniyati borligi xech kimda shubxa tug‘dirmaydi. Senesteziya xodisasi inson organizmi analizator sistemasining doimo o‘zaro

munosabatda bo'lib turishini ko'rsatuvchi xamda odamning ob'ektiv olamini xissiy aks ettirish bir butun xodisaga ega ekanligini ko'rsatuvchi yana bir dalildir.

**Adaptatsiya** – moslashuv sezgi organlari sezgirligining qo'zg'atuvchi ta'siri ostida o'zgarish demakdir.

**1** - qo'zg'atuvchining uzoq muddat davomida ta'sir etishi jarayonida sezgining tamomila yo'qolib qolishiga o'xshaydi.

**2** – adaptatsiya kuchli qo'zg'atuvchining ta'siri ostida sezgining zaiflashib qolishi bilan ifodalanadigan bitta xodisasiga aytiladi.

**3** – kuchsiz qo'zg'atuvchining ta'siri ostida sezgirlikning ortishi xam adaptatsiya deyiladi.


## **1.2. Murabbiyining jamoadagi o'rni va uning faoliyati.**

Umumiy psixologiya odamning psixik jarayonlari, ularning vujudga kelishi, taraqqiyoti, shaxsning psixologik individual xususiyatlarini va shuningdek odam faoliyatning psixologik xususiyatlarini o'rgansa, sport psixologiyasi – psixologiya fanining maxsus tarmog'i sifatida har xil turdagi sport faoliyatining va shuningdek sportchi shaxsning psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

Umuman aytganda – psixologiya fanining har bir maxsus tarmog'ining predmeti odamning psixikasini o'rganishdan iborat. Lekin har bir tarmog'i psixikani o'rganishda o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi, chunki psixikaning rivojlanishi, hayot sferasining hilma – hil ob'ektiv sharoitlari va odamning faoliyati bilan bog'liqdir.

Sport psixologiyasi – psixologiya fanining amaliy sohasidir. Uning asosiy vazifasi – jismoniy tarbiya va sport mashqining maxsuldor usullarini ilmiy asoslash va ularni effektiv qo'llashga yordam berishdir.

Sport psixologiyasi oldidagi qo'yilgan vazifalarni quyidagi jadvalda kuzatish mumkin.



Sport faoliyati quyidagilar bilan bog'liqdir:

- Maxsus jismoniy mashqlarni bajarish, muskullarning har xil formadagi aktivligi bilan bog'liq; sport faoliyati jarayonida odam kerakli jismoniy chiniqish, umumiy jismoniy tayyorgarlikka ega bo'ladi.
- Tanlangan sport turi bo'yicha jismoniy mashqlarni bajarish yuksak texnikasini egallash bilan bog'liq; sport faoliyati sportchidan maxsus sistemali va uzoq muddatli mashq qilishni talab qiladi.
- Tanlangan sport turi takomillashish bilan bog'liq; sport faoliyati ma'lum jismoniy mashqda eng yaxshi natijalarni qo'lga kiritishga yo'naltirilgan.
- Sport faoliyati sport kurashi bilan bog'liq bo'lib, bu holat sport musobaqasi paytida chuqur va alohida xarakterga egadir.

- Sport faoliyati jismoniy va ruhiy kuchlarning maksimal namoyon bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Sport faoliyati murakkab strukturaga ega bo‘lib, sportchida maksimal jismoniy kuchlar, chuqur emotsional kechinmalar, butun psixik proqesslar faoliyatining kuchayishini rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Sezgi va idroklar harakat faoliyatining asosidir. Harakatni faqat sezgilar orqali idrok qilish mumkin. SHuning uchun sezgilarni rivojlantirishning ahamiyati juda kattadir.

Harakat faoliyatida tasavvur, hayol, xotira katta rol o‘ynaydi. Harakatni esda qoldirish ongli proqessdir. Harakatni oldin tasavvur qilib olmasdan, uni bajarish qiyin. O‘quv protsessidagi har bir harakatni o‘rganishda harakat to‘g‘risidagi umumiy tasavvur qilish tasodifan emasdir.

Kurash, boks, qilichbozlik, futbol, basketbol va boshqa sport turlarida yuqori taktik mahoratlarga ega bo‘lish, yangi vaziyatlardagi masalalarni tez anglab, ularni tez muddat ichida echishda tafakkurning ahamiyati juda kattadir.

Jismoniy mashqlar va sport mashg‘ulotlarni uzoq muddatda bajarib borish natijasida ixtisoslashtirilgan idroklar rivojlanadi (yugurishda “vaqtni his qilish”, suzuvchilarda “suvni his qilish”, sport o‘yinlarida “to‘pni his qilish”, qiklik sport turlarida “vaqtni his qilish”, bokschilarda “oraliqni his qilish” va boshqalar).

SHuni ta’kidlash kerakki, jismoniy mashqqa o‘rgatishda va sport mashqi protsessida odamni psixik proqesslari va funkqiyalarini hisobga olish zarurdir.

### **1.2.1. Jamoa o‘yinchilarini o‘yindan oldingi xolati.**

#### **Reaksiya va uning sport faoliyatidagi ahamiyati**

#### **Mustaqil o‘rganish uchun savollar**

1. Reaksiya haqida umumiy tushuncha va uning sport faoliyatidagi ahamiyati.
2. Reaksiya protsessining strukturasi (tuzilishi).
3. Reaksiya tiplari.
4. Oddiy reaksiyaning xususiyati va tuzilishi.
5. Murakkab reaksiyaning xususiyati va tuzilishi

## 6. Xar xil sport turlarida reaksiyaning xususiyatlari

Sportda ongli, irodaviy harakat katta o‘rin egallab, ko‘pincha reaksiya shaklida namoyon bo‘ladi.

Reaksiya ongli javob harakat bo‘lib, bunda sportchi bo‘lajak qo‘zg‘ovchini oldindan biladi va unga tegishli ma’lum javobni oldindan tayyorlaydi.

Reaksiya protsessiga startni olish mumkin. Sportchi startga tayyorlanar ekan, u faqat oldiga qo‘yilgan maqsadni tasavvur qilib qolmay, balki unga erishish vositalarini ham tasavvur qiladi. U qanday signal bo‘lishini oldindan biladi va uni ongli ravishda kutadi. SHu bilan birga bu signalga qanday harakat bilan javob qaytarish kerakligini ham biladi, bu harakatlarni oldindan o‘zlashtirgan va mashqlantirgan bo‘ladi. Reaksiya protsessining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u qisqa muddatda o‘tadi. Reaksiya vaqti sigma (**u**) bilan o‘lchanadi. Sigma (**u**) sekundaning mingdan bir qismi.

### **Reaksiyaning strukturasi (tuzilishi)**

Reaksiya protsessi oldin ma’lum bo‘lgan shartli qo‘zg‘ovchini idrok qilish, bu qo‘zg‘ovchini anglash va unga muvofiq javob xarakat qilishdan iboratdir.

Reaksiyaning 3 ta davri mavjuddir:

I. Dastlabki davri

II. Markaziy yoki yashirin (latent) davri


III. YAkunlovchi yoki effektor davri

Reaksiyalar sensor, motor va neytral tiplarga ajratiladi.

Sensor tipdagi reaksiya vaqti 160-175 sigma, neytral tipda 140-150, motor tipdagi reaksiya vaqti 100-125 sigma atrofida. Reaksiyalar oddiy va murakkab deb 2 taga ajratiladi:

1. Oddiy reaksiyada, oldindan ma’lum bo‘lgan bitta qo‘zg‘ovchiga oldindan o‘rganib olingan javob harakati bilan mazkur signalga javob qaytariladi. Startdan chiqish bunga misol bo‘la oladi.


### Oddiy reaksiya sxemasi:



Oddiy reaksiyaning yashirin davri 3 momentdan iborat 1-sensor qo'zg'ovchini qabul qilish; 2-anglash; 3-motor.

2. Murakkab reaksiyada bir nechta qo'zg'ovchilar mavjud bo'lib, bu qo'zg'ovchilarga oldindan bir nechta javob harakatlari tayyorlangan bo'ladi. Lekin ayni vaqtda qo'zg'ovchilardan qaysi biri ta'sir etishi sportchiga noma'lumdir. Misolga boksni olish mumkin.

### Murakkab reaksiya sxemasi:



Murakkab reaksiyaning yashirin davri quyidagi momentlardan iborat:

1. Sensor (qo'zg'ovchini qabul qilish) momenti. 2 Idrok qilinayotgan qo'zg'ovchilarni farqlantirish momenti. 3 Anglash momenti, mazkur qo'zg'ovchini o'ziga tanish qo'zg'ovchilar gruppasiga kiritish. 4 Eng yaxshi javob harakatini tanlash. 5. Motor momenti.

Reaksiya vaqti qisqa muddatda o'tsada, lekin ba'zi bir sport turlarida (boks, kurash, qilichbozlik, qisqa masofaga yugurish, suzish) sportchini natijasiga bevosita ta'sir qiladi.

**1.3. Futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonidagi psixologik tayyorgarligi.**

Psixologik tayyorgarlikni asosiy yoʻnalishlari:

-sport bilan shugʻullanish uchun motivaqiya tashkil topish.

-iroda tayyorgarligi;

-idiamator mashgʻulot;

-tez reaksiya berishni takomillashtirish;

-ixtisoslashgan malakalarni takomillashtirish;

-psixologik kuchlanishni boshqarish;

-emotsional stress uchun toleryantlik ustida ishlash.

-sportchilarni start xolatini boshqarish.

Kurashchining “Psixik tayyorgarligi” tushunchasi ikkita tushunchani oʻz ichiga oladi: umumiy Psixik tayyorgarlik va muayyan musobaqaga Psixik tayyorgarlik.

Umumiy Psixik tayyorgarlik butun sport takomillashuvi jarayoni davomida jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik bilan olib boriladi. Uning yordamida quyidagi oʻziga xos vazifalar hal etiladi:

1. Kurashchining ahloqiy sifatlarini tarbiyalash.

2. Sport jamoasi va jamoadagi Psixik muhitni shakllantirish.

3. Iroda sifatlarini tarbiyalash.

4. Ilgʻab olish jarayonlarini rivojlantirish, xususan, “raqibni his qilish”, “vaqt va makonni his qilish” kabi ilgʻashning maxsus turlarini takomillashtirish va h.k.

5. Diqqatni, uning mustahkamligi, jamlanishi, taqsimlanishi hamda biridan ikkinchisiga oʻtishini rivojlantirish.

6. Taktik fikrlashni rivojlantirish.

7. Oʻz hayajonlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.

Sport jamoasini shakllantirish . Jamoa orasida yashash yuksak hissiyoti, doʻstona munosabatlar, kurashchilarning birdamligi - trenirovka mashgʻulotlari va musobaqalardagi yaxshi Psixik iqlim uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Iroda sifatlarini tarbiyalash. Sportchining iroda sifatleri quyidagi paytlarda, ya'ni iroda harakatlarning maksad va sabablari sportchining dunyoqarashi, qat'iy e'tiqodlari hamda ahloqiy ko'rsatmalari bilan aniklanganida namoyon bo'ladi. Katta iroda talab qilinadigan o'ta og'ir mashqlar iroda sifatlarini maqsadli tarbiyalashga yordam beradi. Bunda mashklarni bajarishga bir maqsadni ko'zlab yo'naltirish muhimdir.

Jasurlik va qat'iyatlilikni tarbiyalash uchun mashqlarni bajarish paytida ma'lum darajadagi tavakkalchilik va qo'rquv hissini engib o'tish bilan bog'liq bo'lgan mashklardan foydalanish zarur.

Maqsadga yo'nalganlik va qat'iyatlilik kurashchilarda trenirovka jarayoni, kurash texnikasi va taktikasini egallash muhimligi, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish orqali tarbiyalanadi.

O'z sport faoliyatiga qiziqish uyg'otish maqsadida, trenirovka jarayonida yuqori darajada murakkab bo'lgan emotsional mashqlarni qo'llash hamda ularni nazorat qilish foydalidir.

CHmdash va o'zini tuta bilish - kurashchining o'ta muhim sifati hisoblanib, bellashuvdan oldin va, ayniqsa, bellashuv jarayonida salbiy emotsional holatlarni (o'ta qo'zg'oluvchanlik va jahldorlik, o'zini yo'qotib qo'yish, tushkunlikni) engib o'tishda namoyon bo'ladi.

Mashg'ulotlarda bu sifatlarini tarbiyalash uchun kuchli toliqishni yuzaga keltiruvchi va og'riq beruvchi mashklar kiritiladi. Trenirovkalarda vaziyat to'satdan o'zgaradigan murakab holatlar modellashtiriladi va ularda shunga erishish lozimki, kurashchi shunday sharoitlarda o'zini yo'qotib qo'ymasligi, salbiy hayajonlarini jilovlab o'z harakatlarini boshqara bilishi kerak.

Tashabbuskorlik va intizomlilik trenirovka hamda musobaqa faoliyatidagi ijodiy ishda va faollikda namoyon bo'ladi. Tashabbuskorlik o'quv-trenirovka bellashuvlarida murakkab texnik-taktik harakatlarni amalga oshirish yo'li orqali tarbiyalanadi. Bunda kurashchilarga maqsadga erishish uchun andozadan holi

hamda kutilmagan harakatlarni qoʻllagan holda mustaqil qaror chiqarish taklif etiladi.

Intizom oʻz majburiyatlarini bajarishga boʻlgan vijdonan munosabatda, tartiblilik hamda ijrochilik sifatlarida aks etadi.

Ilgʻash jarayonlarini rivojlantirish. Kurash bellashuvining har qanday vaziyatlarida harakat qila olish malakasi kurashchining eng muhim sifati hisoblanadi. U koʻp jihatdan raqib harakatlarini vaqt va makonda toʻgʻri ilgʻab olishga bogʻliq. Buning asosida nozik mushak-harakat sezgilari va harakat koordinaqiyasi yotadi.

Diqqatni rivojlantirish. Kurashchining texnik-taktik harakatlari samaradorligi koʻp jihatdan diqqatning rivojlangan-ligi: uning hajmi, shiddati, mustahkamligi, taqsimlanishi va biridan ikkinchisiga oʻtishi bilan belgilanadi. Kurashchi raqibning murakkab va tez oʻzgaruvchan harakatlarida koʻp sonli turli texnik-taktik harakatlarni ilgʻab oladi. Diqqatning bu xususiyati uning xajmi bilan tavsiflanadi. SHu bilan birga kurashchi eng asosiy qismlarga diqqatni jamlashni oʻrganishi lozim. Bu diqqatning shiddatiga taalluqlidir, har xil chalgʻitishlar va aldamchi omillar taʼsiriga qarshi turish malakasi diqqatning mustahkamligidan dalolat beradi. Biroq, kurashda diqqatning eng muhim xususiyatlaridan biri uning taqsimlanishi va biridan ikkinchisiga oʻtishi, yaʼni bir vaqtning oʻzida bir nechta obʼektlarni (qoʻllar, oyoqlar, gavda harakatlari, raqibning joy oʻzgartirish tezligi va h.k.) nazorat qilish hamda diqqatni tez biridan ikkinchisiga oʻzgartirish qobiliyati hisoblanadi.

Taktik fikrlashni rivojlantirish. Taktik fikrlash - bu kurashchining raqib bilan oqilona kurashish yoʻlini topishga qaratilgan fikrlash jarayonlarining tez maksadga koʻchishidir.

Taktik fikrlash musobaqa faoliyatining ijodiy xususiyatini belgilaydi va turli murakkab holatlarni modellashtiruvchi musobaka mashqlari yordamida, shuningdek oʻquv-trenirovka bellashuvlarida rivojlantiriladi. Bunda raqibning taktik oʻylanmalarini topish, uning ehtimoldagi harakatlarini oldindan koʻzlay bilish malakasiga murakkab vaziyatda oʻzini oʻnglash, asosiy vaziyatlarni

ajratib, ularni tez va to'g'ri baholash malakasiga kurashchining diqqati qaratiladi. YUqori malakali kurashchi tez sur'atda oqilona echimlarni topishi va muayyan musobaqa vaziyati uchun eng samarali texnik-taktik harakatlarni qo'llashni bilishi lozim.

O'z hayajonlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish. Sportchilarning o'z hayajonli holatlarini boshqara olish malakasi ko'p jihatdan ular sport mahoratining oshishiga yordam beradi. Trenirovka yoki musobaqaning ayrim vaziyatlari, lahzalariga pozitiv va salbiy munosabatda bo'lish hayajonlar bilan birga kechadi. Ular sportchining sub'ektiv va ob'ektiv qiyinchiliklarni engib o'tishini engillashtiradi yoki qiyinlashtiradi. Hayajonli holatlar shiddati musobakalar ahamiyatiga va mas'uliyatiga bog'liq.

## **II BOB. ISHNING MAQSADI, VAZIFASI VA TADQIQOT YO‘LLARI.**

***Ishning maqsadi:*** Futbolchilarni musobaqa davrida psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlash va tahlil qilish.

***Ishning vazifasi:***

- 1) Futbolchilarni musobaqa davrida psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlash;
- 2) Futbolchilarni musobaqa davrida psixologik tayyorgarlik darajasini oshirish yo‘llarini aniqlash va tadbiiq etish;
- 3) Futbolchilarni musobaqa davrida psixologik tayyorgarlik darajasini oshganlik samaradorligini aniqlash

### **2.1. Tadqiqot uslublari.**

Oldinga qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagi uslublardan foydalanildi:

- ilmiy uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish;
- matematik statistik uslublar.
- futbolchilarning musobaqa va mashg‘ulotlar faoliyati davomida pedagogik kuzatishlarni olib borish;
- tadqiqotni kuzatish va tajriba almashish uslublari;
- pedagogik tajriba.

#### **2.1.1. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish.**

Ushbu uslub malakaviy bitiruv ishining hamma vazifalarini hal etish uchun foydalanildi va tadqiqot vazifalarini oldinga qo‘yish hamda olingan natijalarni muxokama etishda asosiy uslub bo‘lib xizmat qildi.

Adabiyotlarni taxlil qilish jarayonida mashg‘ulotlarni tashkil etishning umumiy va maxsus qonuniyatlari, maxsus funkqional xususiyatlari, mashg‘ulot tuzilmalarida yuklamalarni meyorlash va taqsimlash uslublari o‘rganildi.

#### **2.1.2. Matematik statistik uslublar.**

Tadqiqotlar natijalari statistik ishlab chiqildi. Unda guruhlarining statistik ko‘rsatkichlari hisoblandi.

## 2.2 Pedagogik tajriba

### Topshiriq №1 Trener va sportchining munosabatlarini aniqlovchi metodika

#### TS-1 shkalasi (YU.Xanin, V.Stambulov)

«Trener — sportchi» shkalasi sportchilarni trenerga bulgan munosabatini son va sifat belgilari bo'yicha tezda baxolay olishga imkon beradi. Bu shkala 24 ta savoldan — tasdiqlashlardan iborat bo'lib, sportchi xar bitta savolga «ha» deb rozi bulishi yoki «yo'q» deb rozi bo'lmasligi mumkin. SHu savollarga javob to'plash yordamida sportchining trenerga bo'lgan munosabatining uchta tomonni etarli darajada baxolay olish mumkin:

1. Bilish komponenti - trenerning o'z sohasi bo'yicha bilimdonligini mutaxassis sifatida professional maxoratini 1, 4, 7, 10, 13, 16, 19, 22 savollarga olingan javoblar belgilaydi.
2. Emotsional komponenti - formal bo'lmagan yoqimli munosabatlarga diqqat e'tibor berishda, sportchini qo'llab-quvvatlashda, uni baholashda uning ehtiyojlariga trenerning nechog'lik javob berishini aniqlovchi 2, 5, 8, 11, 14, 17, 20, 23 savollarni o'z ichiga oladi.
3. Xulqiy komponent - trener bilan sportchining munosabatlari, ularning birgalikdagi xatti-harakatlarining muloqatini maqsadga muvofiq yoki nomuvofiqlikni sportchining nuktai nazaridan baholash 3, 6, 9, 12, 15, 18, 21, 24 savollar yordam beradi. Kalitga muvofiq tagiga chizilgan savollar nomerlari «yo'k» degan javobni, qolganlari esa «ha» javobni bildiradi. Kalitga mos kelgan shaklidagi xar bir savolga bir ball bilan baxolanadi

Ko'rsatma: Diqqat bilan quyidagi xar bir jumlaning o'qib chiqing. Agar ular sizning trener bilan bo'lgan munosabatlaringizga to'g'ri kelsa, «Xa» deb javob bering, agar to'g'ri kelmasa «Yo'q» deb javob bering.

1	Trener o'z o'quvchilarining natijasini aytib bera oladi.	Xa	Io'q
---	--	----	------

2	Trener bilan munosabat qilishim qiyin	Xa	Io'q
3	Trener xaqqoniy odam.	Xa	Io'q
4	Trener meni musobaqalarga to'g'ri tayyorlab boradi.	Xa	Io'q
5	Trenerning odamlarga bo'lgan munosabatida sezgirlik etishmaydi	Xa	Io'q
6	Trener so'zi — men uchun qonun	Xa	Io'q
7	Trener men bajaradigan vazifalarni sinchkovlik bilan planlashtiradi	Xa	Io'q
8	Men trenerdan juda mamnunman	Xa	Io'q
9	Trener menga etarli darajada talabchan emas.	Xa	Io'q
10	Trener xar doim oqilona maslaxat bera oladi.	Xa	Io'q
11	Men trenerga butunlay ishona olaman	Xa	Io'q
12	Trenerning baxolashi men uchun juda muxim	Xa	Io'q
13	Trener trenirovkalarni bir qolipda olib boradi.	Xa	Io'q
14	Trener bilan ishlash roxatning o'zginasi	Xa	Io'q
15	Trener menga diqqatni kam jalb qiladi.	Xa	Io'q
16	Trener mening individual xususiyatlarimni ko'pincha inobatga olmaydi.	Xa	Io'q
17	Trener mening kayfiyatimni xar doim payqamaydi	Xa	Io'q
18	Trener mening fikrlarimga xar doim quloq soladi.	Xa	Io'q
19	Menda trener qo'llaydigan metodlar va vositalarning to'g'riligiga shubxa yo'q.	Xa	Io'q
20	Men trenerni o'zimning fikr tuyg'ularimga sherik qilmayman	Xa	Io'q
21	Trener meni arziyas qilgan xatoim uchun jazolaydi.	Xa	Io'q
22	Trener mening kamchiliklarimni va kuchli tomonlarimni yaxshi biladi.	Xa	Io'q
23	Men trenerimga o'xshashni xoxlayman.	Xa	Io'q
24	Trener bilan aloqamiz faqat ish yuzasidan bo'ladi	Xa	Io'q

### **Olingan natijalarni ishlab chikish**

1. Trener-sportchini munosabatlarini kriteriyasi 1-jadvalda berilgan.
2. Tekshirilayotgan alohida bilish, emotsional va xulqiy komponentlari bo'yicha tekshiriluvchining ballar yig'indisi hisoblab chiqiladi va protokolga kiritiladi. (jadval 2) yig'indisi 0 dan to 8 ballgacha bo'lishi mumkin.
3. YAkuniy ko'rsatgichlar aniqlanadi.
4. Bilish, emotsional, xulqiy komponentlar ko'rsatgichlari bo'yicha

tekshirilgan xamma komanda a'zolari baholari baholash kriteriyasi (jadval 3) bilan solishtiriladi va sportchi-trener shaxslararo munosabatlari aniqlanadi.

**Trener-sportchi shaxslararo munosabatini baholash kriteriyasi.**

*Jadval 1*

<i>Sportchi-trener shaxslararo munosabatlarining xarakteri</i>	<i>Munosabat komponentlari Aloxida bilish, emotsional, xulkiy komponentlar buyicha</i>
Juda munosib	7 - 8
Etarli darajada munosib	5 - 6
O'рта	4
O'rtadan past	2 - 3
Xaddan tashkari nomunosib	0 - 1

**Sportchi-trener o'zaro munosabatlarini tekshirish protokoli**

*Jadval 3*

Sportchini F.I.SH.

<i>Savollar</i>	<i>Ko'rsatgichlar</i>		
	<i>Bilish</i>	<i>Emotsional</i>	<i>Xulqiy</i>
<b>1</b>	1	1	1
<b>2</b>	1	1	0
<b>3</b>	0	0	0
<b>4</b>	1	1	1
<b>5</b>	1	0	0
<b>6</b>	1	0	1
<b>7</b>	1	1	0
<b>8</b>	1	1	1
<b>Umumiy</b>	<b>7</b>	<b>5</b>	<b>4</b>

*Jadval 3*

<i>Trener-sportchi shaxslararo munosabatlarining xarakteri</i>	<i>Munosabat komponentlari</i>		
	<i>Bilish</i>	<i>Emotsional</i>	<i>Xulqiy</i>
Juda munosib (7-8 ball)	7		
Etarli darajada munosib (5-6 ball)		5	
O'рта (4 ball)			4

O'rtadan past (2-3 ball)			
Xaddan tashkari nomunosib (0-1 ball)			

O'rtacha arifmetik baxo komanda tomonidan xar bir tekshirilgan shaxslararo munosabat komponentlari va yakuniy kursatkichlar buyicha chizilgan trenerni uziga mos umumlashgan «portret»ni kuz ungiga keltirish imkonini beradi. Olingan natijalarni taxlil kilishda tekshirilgan bilish, emotsional, xulkiy komponentlardan kaysi biri past baxolanganniga e'tibor berish kerak. Bu esa kerak bulgan xolda trenerning uziga professional bilim va kunikmalarni oshirish, sport kollektivida xulqini takomillashtirish, tarbiyalanuvchilar bilan munosabatni yaxshilash imkonini beradi.

**Topshiriq №2 Bardoshli va o'zini tuta bilish - fikrning aniqligini saqlay bilish, o'z tuyg'ularini boshqara olish va o'z harakatlarini boshqara bilishi bilan xarakterlanadi.**

### **1. Fnklar aniqligining saqlanishi**

- a) musobaqadagi muvaffaqiyatsizlash, xato va to'siqlarning ta'siridan paydo bo'lgan, ko'ngilsiz tasavvur va fikrlarni muvaffaqiyatli bartaraf qilish;
- b) rakibning yuqori natijalariga bog'liq holda payda bo'lgan ko'ngilsiz tasavvur va fikrlarni muvaffaqiyatli bartaraf qilish (ayniqsa bu qutilmagan bo'lsa).
- v) musobaqani uyushtirish va sudyalikdagi kamu - ko'stlar ta'sirida payda buladigan ko'ngilsiz tasavvur va fikrlarni muvaffaqiyatli bartarf qilinishi.

### **2. Tuyg'ularini boshqarish.**

- a) Astenik (passiv) emoqiyalarni bartaraf qila bilish (azob chekish o'zini yo'qotish, qo'rqinch va boshqalar).
- b) rakibning yuqori natijalari, musobaqani uyushtirish va sudyalikdagi kamu-ko'stlari tufayli paydo bo'lgan ortiqcha hayajonlanishni bartaraf qilish;

v) trenirovka va musobaqadagi yutuqlarga bogʻliq holdagi salbiy kechinmalarni bartaraf qilish (ustunlik zararli tusdagi oʻziga ishonch; beparvolik. Toqatsizlik va boshqalar).

### 3. Haraktlarni boshqarish:

a) musobaqada vujudga kelgan muvaffaqiyatsizlik, xato va toʻsiqlar, rakibning yuqori natijalari, musobaqani uyushtirish va sudyalikdagi kamu-koʻstlardan qatʻiy nazar yuqori natija uchun ohirigacha kurashish qobiliyati;

b) charchashni iss etish, ogʻriq sezgisi va boshqa noxush ichki xolatlar payda boʻlganda maksadga muvofiq harakat qilish, xarakat texnikasini saqlash qobiliyati.

V) keraksiz, xato, zararli xatti-harakatlardai oʻzini tiya bilish (trenirovka yoki musobakaning toʻxtatilishi, qoʻpollik, aytishib kolish va boshqalar).

## IRODAVIY SIFATLARI BAXOLASH PROTOKOLI

<i>IRODAVIY SIFATLAR VA UNING BELGILARI</i>			<i>Irodaviy sifatlar belgilarining namoyon boʻlishini baholash</i>			
			<i>a</i>	<i>b</i>	<i>v</i>	<i>umumiy</i>
Maqsadga intilish	1	Perspektivali va oraliqdagi maqsadlarning aniqligi				
	2	Xususiy vazifalarning aniqligi.				
	3	Maqsadga erishish uchun xarakatning rejali boʻlishi				
Sabotlilik Matonatlilik	4	Maqsadga intilishdagi katiylik				
	5	Toʻsiqlarni bartaraf qilishda energiya va aktivlik				
	6	Toʻsiqlarni bartaraf qilishning samaraliligi.				

Mustaqillik va tashabbuskorlik	7	Boshqa odamlarning tasir va ularning xatti- xarakatlarga chidam berish				
	8	Fikr va amalda shaxsiy tashabbus va ijodkorlik				
	9	Topqirlik va ziyraklik (zexni o'tkirlik)				
Qatilylik va dadillik	10	O'z vaqtida qabul qilingap ijro				
	11	Qabul qilingan qarorlarning puxta o'ylanganligi				
	12	Qabul qilingan qarorning o'z vaqtida ijro etilishi				
Bardoshlilik va o'zini tuta bilish	13	Fikrlar aniqligining saqlanishi				
	14	Tuyg'ularini boshqarish				
	15	Xarakatlarni boshqarish				

Irodaviy sifatlar belgilari, tasvirlangan punktlar ketma-ket o'qiladi (belgilar 1, 2, 3... 15 gacha raqamlar bilan belgilangan). Namoyon bo'lgan har belgi baholanadi. Belgilar ballari "a,b,v" xarflar bilan ifodalangan protokolga yoziladi "Irodaviy sifatlar baholash protokoli".

Quyidagi baholash shkalasi tavsiya qilinadi:

YOrqin namoyonlashgan	5 ball
YAxshi	4 ball
Qoniqarli	3 ball
YOmon	2 ball
Juda yomon	1 ball
Hech narsa yo'q	0 ball

Namoyon bo'lgan irodaviy sifatlar belgisining ballari har uchtasi qo'shilib protokolga umumiy (jami) baho yoziladi (xammasi 15 ball). Olingan natijalar asosida sport turi bo'yicha irodaviy sifatlarni rivojlanish profili chiziladi, taxlil qilinadi va tavsiyalar beriladi.

### Topshiriq №3 Sportchini taktik tafakkurini aniqlash.

**Mashg'ulotning vazifasi:** Maxsus masalalarni echish orqali fikr yuritish operaqiyalarni tezligi va aniqligini ulchash.

Fikr yuritish operaqiyalarni tezligi va aniqligi masalani echish vaqti va yurishlar sonini har bir misol uchun va umumiy misollar uchun aniqlash orqali amalga oshiriladi.




O'rtacha natijalarni olingan natijalarga solishtiriladi.

Tajribada A.V.Pushkin metodikasi qo'llaniladi.

Tajribani o'tqazish uchun ishtirokchilar uchtadan eksperimental guruxlarga bo'linadi. Har bir gurux tekshiriluvchilariga 6x4 sm. korobkalar berib chiqiladi. Bu korobka besh kvadratga bo'lingan bo'lib, kvadratlar A, B, V, G, D xarflari bilan belgilangan.

A	B	V
G	D	

Bundan tashqari kvadrat fishkalari (1,2,3) beriladi.



Fishkalar korobkani ichiga har hil ketma ketlikda qo'yiladi. Tekshiruvchini vazifasi iloji boricha kam yurishlar soni orqali 1, 2, 3 ketma ketligida fishkalarni qo'yish. Eksperimentator tajriba jarayonida vaqtni va fishkalar bilan yurishlar sonini belgilaydi.

Tekshiruvchilarga quyidagi 6 ta masalani echish tavsiya qilinadi.

2a 1b Zv yurishlar soni - 4

2a 1b Zd yurishlar soni - 7

3a 2v 1d yurishlar soni - 8

3a 1b 2v yurishlar soni - 8

2a 3b 1v yurishlar soni - 10

3a 2b 1v yurishlar soni - 10

Tajriba boshlashdan oldin tekshiriluvchiga ishlab chikish uchun quyidagi variant tavsiya qilinadi; 2a, 3b, 1d.

Bu masalani natijasi hisoblab chiqishda inobatga olinmaydi.

Tekshiriluvchiga instrukqiya: Sizing vazifangiz iloji boricha tezrok va iloji boricha kamrok yurish orqali fishkalarni 1. 2, 3, xolatga keltirish.

Natijalar quyidagn protokolga yoznladi:

<i>Nº</i>	<i>Masalalarni mazmuni</i>	<i>YUrishlar soni</i>	<i>Masala echish vaqti</i>
1	2a 1b Zv		
2	2a 1b Zd		
3	Za 2v 1d		
4	Za 16 2v		
5	2a 3b 1v		
6	Za 2b 1v		

